



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2
2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Jahongir Rasulovich Zaynalov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Kambag‘allikni qisqartirishda turizm xizmatlarining o‘rni	63
Озода Мамаюнусовна Пардаева “Ақлли туризм” соҳасида оилавий тадбиркорлик тизимини ривожлантириш йўналишлари	67
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Мехринисо Мирзохидовна Кахрамонова Тренды устойчивого туризма и их применение в Узбекистане	71
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Kamola Abdumurodova, Dilnoza Shokirova O‘zbekistonda turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish yo‘llari	77
Ziyovuddinxon Toshbolta o‘g‘li Bakayev Turizm va mehmondo‘stlik industriyasida turistik dala hovlilar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari	80
Камилла Бахромовна Суюнова Современные маркетинговые подходы в туризме	87
Muhriddin Husniddin o‘g‘li Qilichov Buxoro tarixiy markazidagi meros obyektlarida turistik sig‘im imkoniyatlari	91
Raxmatulla Hayitboyev, Bobir Zoirovich To‘qsonov Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	98
Лариса Алижоновна Мусабаева, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Гули Авазхон қизи Ганиева Оценка конкурентоспособности туристических предприятий на региональном рынке	102
Nurbek Janon o‘g‘li Toshev Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm sohasining konseptual modelini takomillashtirish	105
Raxmatulla Hayitboyev, Shohzod Baxtiyor o‘g‘li Sadinov, Feruz Yorqin o‘g‘li Hasanov Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	110
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova Gruziya tajribasi asosida O‘zbekistonning rekreatsion turizm sektorini rivojlantirish imkoniyatlari	113
Kamol Sharifovich Yuldashev Buxoro viloyatida avtoturistlar uchun “Avtoturargoh” loyihasini amalga oshirish istiqbollari	116
Temurbek Salomov Ziyorat turizmining barqarorligini oshirish va xizmatlar sohasiga ta’siri	122
MENEJMENT VA MARKETING	
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov, Mashxura Toirxonovna Alimova Oliy ta’lim muassasalarida KPI tizimini samarali joriy etish va yuritish	126
Xilola Nematovna Ochilova Boshqarish tizimida raqobatbardoshlikni oshirishda karyerani rivojlantirish texnologiyalarining ahamiyati	130
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruvni takomillashtirish	135
Samar Safarovich Bozorov Mintaqa milliy turizm bozorining kotent marketing brendining shakllanish darajasi	139
Sadulla Shodiyevich Urazov Tashkilot boshqaruvida CAPI modelidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	143

ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish zarur.

- Gruzija tajribasiga o'xshash tarzda rekreatsion hududlarni boshqaruvchi maxsus agentliklar faoliyatini yo'lga qo'yish samaradorlikni oshiradi.
- Termal suvlar, balneologik resurslar va tog'-iqlim zonalarini ilmiy asosda baholash, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish va sertifikatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.S. Tuxliyev va boshqalar. Turizm atamalarining izohli lug'ati. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. 2021.
2. I.S. Tuxliyev va boshqalar, Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024.
3. W. Khairil, W. Melissa Hassan, M. Salehuddin. Tourism development: a geographical perspective, Asian Social Science. 2009.
4. M. Godovykh, A. Flyall va A. Pizam, Exploring the impacts of tourism on the well-being of local communities, Sustainability 2025.
5. Z. Musotov, K. Kulakov va Z. Tarkhanova. Tourism and recreation their role in ensuring sustainable development of territories, E3S Web of Conferences. 2023
6. J. Abdupattoxov. O'zbekistondagi madaniy obidalar, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2021.

Н.Холбоева, Р.Амридинона Возможности развития сектора рекреационного туризма Узбекистана на основе опыта Грузии Аннотация. В статье проведён анализ социально-экономической эффективности сектора рекреационного туризма Узбекистана, раскрыта его роль в экономическом росте, занятости, модернизации региональной инфраструктуры и формировании здорового образа жизни населения. Кроме того, рекреационный потенциал Узбекистана сопоставлен с опытом Грузии, выявлены преимущества и недостатки в использовании природных ресурсов, состоянии инфраструктуры, модели управления и участия частного сектора. Ключевые слова: рекреационный туризм, туризм, социально-экономический рост, устойчивое развитие, благосостояние общества, туризм Узбекистана, опыт Грузии.	N.Kholboyeva, R.Amriddinova Opportunities for developing Uzbekistan's recreational tourism sector based on Georgia's experience Abstract. The article analyzes the socio-economic efficiency of Uzbekistan's recreational tourism sector, highlighting its role in economic growth, employment, modernization of regional infrastructure, and the promotion of a healthy lifestyle among the population. Furthermore, Uzbekistan's recreational potential is compared with Georgia's experience, identifying strengths and weaknesses in the use of natural resources, infrastructure conditions, management models, and private sector participation. Keywords: recreational tourism, tourism, socio-economic growth, sustainable development, social welfare, tourism in Uzbekistan, Georgia's experience.
---	---

Kamol Sharifovich Yuldashev – BuxDU, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasini mudiri, i.f.f.d (PhD)

BUXORO VILOYATIDA AVTOTURISTLAR UCHUN “AVTOTURARGOH” LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada COVID-19 pandemiyasidan so'ng O'zbekistonda kuchaygan mustaqil avtoturizm tendensiyasi o'rganilgan. Mamlakat bo'ylab faoliyat ko'rsatayotgan 15 ta avtomobillarni ijaraga beruvchi kompaniyaning qiyosiy tahlili amalga oshirilib, ularning xizmat modellari, narx siyosati va geografik qamrovi baholangan. Bundan tashqari, Buxoro viloyatida shaxsiy yoki ijaraga olingan avtomobillarda tashrif buyuradigan mustaqil turistlar uchun mo'ljallangan Camping & Auto Parking Area (CAPA) loyihasining konsepsiyasi, joylashish joylari, xizmat tarkibi va yillik daromad prognozi ishlab chiqilgan. Kalit so'zlar: avtoturizm, avtomobilni ijaraga berish, mustaqil turist, kemping, avtoturargoh, CAPA loyihasi, Buxoro viloyati, turizm infratuzilmasi, ichki turizm, daromad prognozi.
--

Kirish. COVID-19 pandemiyasidan so‘ng jahon miqyosida mustaqil sayohatchilarning soni keskin oshdi. Uyushtirilgan turistik guruhlariga nisbatan erkin, moslashuvchan va iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lgan avtoturizm ya‘ni avtomobil turizmi ko‘pchilikka afzal ko‘rinmoqda. Avtoturizm deganda turistning doimiy yashash joyidan shaxsiy yoki ijaraga olingan avtomobilida mustaqil ravishda sayohat amalga oshirishi tushuniladi. Bu tur sayohatchilar uchun yo‘nalish, to‘xtash joylari, harakatlanish vaqti va sayohat dasturini erkin belgilash imkonini beradi.

O‘zbekistonda ham ushbu tendensiya yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Mamlakat prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2023-yilgi ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlarning 81,3 foizi chegarani piyoda kesib o‘tgan [2], ya‘ni ularning asosiy qismi qo‘shni davlatlardan ko‘pincha shaxsiy transportida kelgan. Ushbu ko‘rsatkich shaxsiy yoki ijaraga olingan avtotransportda tashrif buyuradigan turistlar segmentining beqiyos salohiyatini namoyon etadi. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekistondagi avtomobillarni ijaraga berish bozori rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, xizmat modellari, narx siyosati va geografik qamrov nuqtai nazaridan ushbu sohada chuqur tahliliy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Bundan tashqari, mustaqil avtoturistlariga mo‘ljallangan maxsus infratuzilma jumladan, avtoturargoh (kemping) joylari hozirgi kunda Buxoro viloyatida mavjud emas.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi quyidagilardan iborat:

➤ mamlakat bo‘ylab faoliyat ko‘rsatayotgan avtomobillarni ijaraga beruvchi kompaniyalarni qiyosiy tahlil qilish;

➤ mustaqil avtoturistlar uchun tavsiya etiladigan “Camping & Auto Parking Area” (CAPA) loyihasining konsepsiyasi va iqtisodiy asosini ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Avtoturizm kategoriyasi ilmiy adabiyotlarda nisbatan yangi yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqiladi. Waldemar Cudny va Lee Jolliffe o‘zlarining “Car tourism conceptualization and research advancement” nomli tadqiqotida avtoturizmni mustaqil turizm kategoriyasining alohida shakli sifatida kontseptsiyalashtirgan va bu sohaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Mualliflar avtoturizmning xarakteri, turlari va global rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan [3].

Rus olimasi Martishenko N.S. va Loksha A.V. Rossiyada avtoturizmning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganib, bu yo‘nalishdagi infratuzilma talablarini aniqlagan. Ularning xulosasiga ko‘ra, avtoturistlar uchun asosiy muammo kemping va dam olish joylarining yetishmasligi hisoblanadi [1].

Avtomobillarni ijaraga berish sohasida Beata Gierczak-Korzeniowskaning “Tourist and business models in the mobility of customers using car rental services” tadqiqoti xizmat modellarini tasniflab, ularning xaridor xulq-atvori bilan bog‘liq tomonlarini ochib bergan. Muallifning uchta asosiy xizmat modelini belgilashi (bir nuqtadan olib bir nuqtaga qaytarish; A dan B ga qoldirish; qisqa masofali ijara) mazkur tadqiqotga uslubiy asos bo‘lib xizmat qilgan [4].

Sinha N.K., Sahy R. va Kar S.K. avtomobillarni ijaraga berish sanoatidagi “chakana savdo” tendensiyasini tahlil qilib, kompaniyalarning mijoz bilan aloqa modellarini o‘rgangan. Lohmann G. va Zahra A. esa Yangi Zelandiya misolida xorijiy turistlarning ijara avtomobillardan foydalanish xulqini tadqiq etgan [5].

Kempervan va karavan turizmi bo‘yicha Mundet L., Grijalvo M. va Marin J. Xalqaro mehmondo‘stlik va turizm boshqaruvi jurnalida chop etilgan maqolasida karavanning zamonaviy turizm shakli sifatida kuchayib borayotganini va bu segment uchun maxsus infratuzilma kemping va avtoparkovka hududlari talab etilishini asoslab bergan [6].

O‘zbekiston misolida turizm infratuzilmasiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar hali yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni qisman to‘ldirish va avtoturizm rivojlanishi uchun amaliy takliflar ishlab chiqish maqsadida amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot mohiyatini aniqlashda kompleks metodologik yondashuv asosida olib borildi. Jumladan, qiyosiy tahlil metodi, statistik tahlil, loyihalash, iqtisodiy prognozlash kabi usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda birlamchi ma‘lumotlar manbalari sifatida kompaniyalar veb-sahifalaridan olingan ma‘lumotlar, ikkilamchi manba sifatida esa rasmiy statistik to‘plamlar va xalqaro ilmiy maqolalar ishlatildi.

Tahlil va natijalar. COVID-19 pandemiyasidan so‘ng uyushtirilgan sayohatlarga nisbatan mustaqil sayohatchilarning ulushi sezilarli darajada oshdi. Avtoturizm bu turistning doimiy yashash joyidan shaxsiy yoki ijaraga olingan avtomobilida sayohat amalga oshirishidir.

Mazkur kategoriyaga mansub turistlar to‘rt guruhga bo‘linadi (1-jadval).

1-jadval

Mustaqil avtoturistlar turlari

Mustaqil sayohatchilar guruhi	Sayohat davomiyligi	Masofaning uzoqligi	Transport vositasining turi
1-guruh: Aviatransport orqali yetib kelib, o‘sha yerdan ijaraga avtomobil olishadi	Qisqa muddatli (1 kundan 1 oygacha)	Uzoq va yaqin masofaga tegishli	Ijara avtomobili
2-guruh: Yashash manzildan shaxsiy avtomobilda sayohat qilishadi	Qisqa muddatli (1 kundan 1 oygacha)	Qisqa magistral yo‘llar (A-380, M-37)	Shaxsiy avtomobil
3-guruh: O‘z mamlakatlaridan ijaraga avtomobil olib sayohat qilishadi	Qisqa muddatli (1 kundan 1 oygacha)	Qisqa magistral yo‘llar (A-380, M-37)	Ijara avtomobili
4-guruh: Shaxsiy transportda uzoq vaqt sayohat qilib, o‘sha transportda tunadigan turistlar (kempervan, karavan)	Uzoq muddatli	Uzoq va yaqin masofaga tegishli	Shaxsiy avtomobil (kempervan)

Ushbu guruhlarining barchasi uchun umumiy xususiyat sayohat erkinligi, moslashuvchanlik va moliyaviy tejamkorlikdir. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekistonga avtomobil transportida 28,8 ming kishi (0,5%), piyoda chegaradan 5 386,4 ming kishi (81,3%) tashrif buyurgan. Bu ko‘rsatkich qo‘shni davlatlardan yer transportida aksariyat shaxsiy yoki ijaraga olingan avtomobillarda keluvchi turistlar salohiyatini yaqqol ifodalaydi [7].

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan avtomobillarni ijaraga beruvchi 15 ta kompaniya uchta xizmat modeli asosida qiyosiy tahlil qilindi (2-jadval). Statista.com ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2024-yilda ijaraga beriladigan avtomobillar bozoridan tushadigan daromad 123,30 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2024–2029-yillarda yillik 7,20% o‘shish sur‘ati kutilmoqda [8].

2-jadval

Avtomobillarni ijaraga beruvchi kompaniyalardagi xizmatlarning qiyosiy tahlili

№	Kompaniya	Manzil	Min (\$)	Max (\$)	O‘rtacha (\$)	1-model	2-model	3-model
1	AUTORENT EGAR	Toshkent, Mirobod tumani	18	590	304	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud
2	AVTOUZBE GIM MChJ	Toshkent, Yunusobod tumani	23	195	109	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud
3	CAR24.UZ	Toshkent, Mirobod tumani	23	140	81,5	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud
4	CITY RENT CAR №1	Toshkent, Mirobod tumani	23	625	324	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud
5	CITY RENT CAR №2	Toshkent, Yunusobod tumani	23	625	324	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud
6	GT RENT A CAR	Samarqand shahri	19,5	109	64	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud

7	HERTZ	Toshkent, Mirobod tumani	43	225	134	Mavjud	Mavjud	Mavjud
8	IN RENT	Toshkent, Mirobod tumani	22	140	81	Mavjud	Mavjud	Mavjud
9	RENTCAR. UZ	Toshkent, Yunusobod tumani	23	234	128,5	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud emas
10	SAM CAR RENTA	Samarqand shahri	22	100	61	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud
11	SIXT-RENT A CAR	Toshkent, Yakkasaroy tumani	33	137	85	Mavjud	Mavjud	Mavjud
12	AVENTUS RENT A CAR	Buxoro viloyati	27	187	107	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud
13	M&M RENT CAR BUXARA	Buxoro shahri	14	21	17,5	Mavjud	Mavjud emas	Mavjud emas
14	SIXT-RENT A CAR	Buxoro shahri	33	137	85	Mavjud	Mavjud	Mavjud
15	SIXT-RENT A CAR	Samarqand shahri	33	146	78,5	Mavjud	Mavjud	Mavjud

Tahlil natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

➤ 15 ta kompaniyadan 14 tasi 1-model (bir nuqtadan olib, shu nuqtaga qaytarish) xizmatini taqdim etadi;

➤ 2-model (“A” punktdan olib, “B” punktga qoldirish) xizmatini faqat SIXT, HERTZ va IN RENT kabi xalqaro yoki nisbatan yirik kompaniyalar taqdim etadi [9].

Mavjud kompaniyalarning aksariyati Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, Buxoro viloyatida atigi 2-3 kompaniya faoliyat olib boradi. Bu esa Buxoroda ijaraga avtomobil olish imkoniyati cheklanganligi va infratuzilmani rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqorida bayon qilingan tahlillar va Buxoro viloyatiga shaxsiy avtomobilida tashrif buyuradigan turistlar segmentining o‘sib borayotganini hisobga olgan holda, Camping & Auto Parking Area (CAPA) ya’ni, avtoturargoh loyihasi taklif etildi. Loyihaning asosiy maqsadi: mustaqil avtoturistlar uchun maxsus tunash, dam olish va avtomobilni parkovka qilish muhitini yaratish.

Loyiha hududlari tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi: magistral yo‘llar (M-37, A-380) yoqasida joylashuv, Buxoro shahrining markaziga kirish joyiga yaqinlik, hozirda qarovsiz turgan yashil hududlar, atrofda zarur infratuzilmaning mavjudligi, diqqatga sazovor joylarga (maksimum 6–8 km) yaqinlik. Ushbu mezonlar asosida to‘rtta potentsial joy aniqlandi: Buxoro darvozasi (M-37 yo‘li yoqasi), Kogon shahridagi geofizika shaharchasi (A-380 yo‘li yoqasi), Madaniyat (M-37 yo‘li yoqasi) va Chor Bakr yaqini.

CAPA ning xizmat tarkibiga quyidagilar kiritilishi rejalashtirilgan: avtofurgon va kemperlar uchun maxsus hudud, bungalow va kemping zonasi, basseyn va sauna, elektr zaryadlash stansiyasi, velosiped va mototsikl hududi, avto moyka, kir yuvish xizmati, piknik va bolalar maydonchalari.

Loyihaning iqtisodiy asoslanishi ikki qismda: asosiy va qo‘shimcha xizmatlardan tushadigan yillik daromad prognozi ko‘rinishida taqdim etildi. Narxlar Buxoro shahridagi hostels, guesthouse va uy mehmonxonalarining joriy narxlariga taqqoslangan holda belgilandi (3-jadval va 4-jadval) [10].

3-jadval

Asosiy xizmatlardan tushadigan yillik daromadlar prognozi

№	Xizmat turlari	Xizmat obyektlari soni	Bir kunlik narxi (ming uzs)	Yillik hajmi (mlrd uzs)	Yillik o‘rtacha jami daromad 60% qamrov (mlrd uzs)
1	Avtoturargoh hududi	20	300,0	2,190	1,314
2	Bungalo (yotoqxona)	30	130,0	1,423	0,854
3	Yengil avtomobil va kemping	20	130,0	0,949	0,569
4	Piknik va dam olish hududi	10	50,0	0,182	0,109
5	Velosiped va mototsikl hududi	10	40,0	0,146	0,087
Jami					2,934

Ushbu hisob-kitoblar 30 ta avtoparkovka va 20 ta bungalo (ikki kishilik joylashtirish asosida) mavjudligida bir yilda maksimum 36 500 ta joylashtirish xizmatini tashkil etishi mumkinligi (100 kishi × 365 kun) ko‘rsatadi. Buxoro viloyati uchun 60% o‘rtacha yillik qamrov hisobida bu ko‘rsatkich 21 900 xizmatga tushadi. Asosiy xizmatlardan jami yillik o‘rtacha daromad 2,934 mlrd UZS ni tashkil etishi prognoz qilingan.

4-jadval

Qo‘shimcha xizmatlardan tushadigan yillik daromadlar prognozi

№	Xizmat turi	Bir birlik narxi (ming uzs)	Yillik o‘rtacha tashrif buyuruvchilar soni (60% qamrov va 20% jalb etish)	Yillik hajmi (mln uzs)	Yillik o‘rtacha jami daromad 60% qamrov (mln uzs)
1	Basseyin va sauna (3 soat)	70,0	4 380	306,6	183,96
2	Qo‘shimcha kemping	40,0	4 380	175,2	105,12
3	Kir yuvish xizmati	20,0	4 380	87,6	52,56
4	Velosiped ijarasi (1 soat uchun)	15,0	4 380	65,7	39,42
5	Elektr zaryadlash (o‘rtacha)	120,0	1 314	157,68	94,61
6	Avto moyka (o‘rtacha)	15,0	1 314	19,71	11,83
Jami				812,49	487,49

Ekspertlar xulosasiga asosan mehmonxonalardagi qo‘shimcha xizmatlar hajmi 20 foizni tashkil etganini hisobga olsak, qo‘shimcha xizmatlardan yillik o‘rtacha daromad 487,49 mln UZS

ni tashkil etadi. Shunday qilib, loyihaning umumiy yillik daromad salohiyati 3,421 mlrd UZS dan oshishi kutilmoqda [11].

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarni berdi:

1. O‘zbekistonda avtomobillarni ijaraga berish sohasi rivojlanib bormoqda, ammo xizmat modellari cheklangan: 15 ta kompaniyaning aksariyati faqat 1 va 3-model asosida xizmat ko‘rsatadi. 2-model ("A" nuqtadan olib "B" nuqtaga qoldirish) xizmati faqat xalqaro zanjir kompaniyalar tomonidan taqdim etilmoqda. Bu esa mahalliy kompaniyalar uchun yangi bozor imkoniyati bo‘la oladi. Shu munosabat bilan tavsiya sifatida mahalliy avtomobillarni ijaraga beruvchi kompaniyalar aviakompaniyalar, temir yo‘l va mehmonxonalar bilan integratsiyalashgan holda birgalikdagi savdo tizimini joriy etishi, shuningdek Toshkent, Samarqand va Buxoro xalqaro aeroportlari o‘rtasida 2-model xizmatini (A–B qoldirish) ommalashtirib, mustaqil turistlarga xohlagan aeroportdan uchib ketish imkoniyatini taqdim etishi zarur.

2. Buxoro viloyatida avtomobillarni ijaraga beruvchi kompaniyalar soni juda kam (2-3 ta), bu esa Buxoroga tashrif buyuradigan mustaqil avtoturistlar uchun infratuzilma bo‘shliqlaridan birini tashkil etadi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida Buxoro viloyatida yangi ijara kompaniyalarini ochishni rag‘batlantirish, ayniqsa xalqaro aeroport qurilishi bilan bog‘liq holda mintaqadagi ijara infratuzilmasini kengaytirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash zarur.

3. CAPA loyihasi Buxoro viloyatida shaxsiy yoki ijaraga olingan avtomobillarda sayohat qiluvchi mustaqil turistlar uchun moslashtirilgan infratuzilma yaratish bo‘yicha asoslangan va iqtisodiy jihatdan salohiyatli taklifdir. CAPA loyahasini Toshkent–Samarqand–Buxoro–Xiva turistik marshrutining asosiy destinatsiyasi sifatida Kogon, Madaniyat, Chor Bakr hududlarida bosqichma-bosqich joriy etish, bunda mahalliy tadbirkorlar, turizm vazirligi va mahalliy hokimiyat o‘rtasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4. Loyiha doirasida asosiy xizmatlardan 2,934 mlrd UZS va qo‘shimcha xizmatlardan 487,49 mln UZS yillik daromad olish, shuningdek mahalliy tadbirkorlarni jalb etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va yashil hududlarni obodonlashtirish mumkin. Ushbu salohiyatni ro‘yobga chiqarish uchun kelajakdagi tadqiqotlarda CAPA loyahasining aniq sarmoyaviy xarajatlarini va to‘liq moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini (NPV, IRR, qaytarish muddati) hisoblash, shu asosda investorlar va davlat organlari uchun to‘liq biznes-reja ishlab chiqish zarurligi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мартышенко Н.С., Локша А.В. Тенденции развития автотуризма в России, Практический маркетинг, 2013, № 9 (199), С. 28–35.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari (2023-yil). https://qalampir.uz/news/uzbekistonga-k-ancha-sayye%D2%B3-piyeda-kelgani-malum-k-ilindi-84414?utm_source.com.

3. Cudny W., Jolliffe L. Car tourism conceptualization and research advancement, Geografický časopis, Geographical Journal, 2019, Vol. 71, № 4, P. 319–340.

4. Gierczak-Korzeniowska B. Tourist and business models in the mobility of customers using car rental services, Geography and Tourism. – October 2020. DOI: 10.36122/GAT20200813.

5. Sinha N.K., Sahy R., Kar S.K. The Reacidification of the Car Rental Industry, Cognizant 20-20 Insight, December 2015, P. 1–12. URL: <https://www.cognizant.com/whitepapers/The-Retailification-of-the-Car-Rental-Industry-codex1516.pdf>.

6. Lohmann G., Zahra A. The influence of international tourists' travel patterns on rental car fleet management in New Zealand, In: Prideaux B., Carson D. Drive Tourism, Trends and Emerging Markets, Abingdon, 2010, P. 1–21.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekistonda turizm: statistik to‘plam. Toshkent, 2023.

URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/9454-o-zbekistonda-turizm-statistik-to-plami-5>.

8. Statista, Car Rentals Uzbekistan, Market Data & Forecast. URL: <https://www.statista.com/outlook/mmo/shared-mobility/car-rentals/uzbekistan>.

9. Yellow Pages Uzbekistan, Avtomobillarni ijaraga beruvchi kompaniyalar katalogi, URL: <https://uz.yellowpages.uz>.
10. Mehmonxona xizmatlarini sertifikatsiyalash markazi, Buxoro viloyati mehmonxonalari bo'yicha o'rtacha yillik qamrov ko'rsatkichlari, Toshkent, 2023.
12. Buxoro viloyat hokimligi. Buxoroda xalqaro aeroport qurilishi bo'yicha rejalar, Buxoro, 2023.

К.Юлдашев Сравнительный анализ компаний по прокату автомобилей и этапов реализации проекта «Автостоянка» для автотуристов в Бухарском регионе	K.Yuldashev Comparative analysis of car rental companies and stages of implementation of the "Car Park" project for car tourists in the Bukhara region
Аннотация. В данной статье рассматривается тенденция развития независимого автотуризма, который усилился в Узбекистане после пандемии COVID-19. Проведен сравнительный анализ 15 компаний по прокату автомобилей, работающих по всей стране, с оценкой их моделей обслуживания, ценовой политики и географического охвата. Кроме того, разработаны концепция, местоположение, структура обслуживания и прогноз годового дохода проекта «Кемпинг и автостоянка» (CAPA) для независимых туристов, посещающих Бухарскую область на личных или арендованных автомобилях. Ключевые слова: автотуризм, прокат автомобилей, независимый турист, кемпинг, парковка, проект CAPA, Бухарская область, туристическая инфраструктура, внутренний туризм, прогноз дохода.	Abstract. This article examines the trend of independent auto tourism, which has increased in Uzbekistan after the COVID-19 pandemic. A comparative analysis of 15 car rental companies operating across the country was conducted, assessing their service models, pricing policies, and geographic coverage. In addition, the concept, locations, service structure, and annual revenue forecast of the Camping & Auto Parking Area (CAPA) project for independent tourists visiting Bukhara region in personal or rented cars were developed. Keywords: auto tourism, car rental, independent tourist, camping, parking, CAPA project, Bukhara region, tourism infrastructure, domestic tourism, revenue forecast.

Temurbek Salomov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

ZIYORAT TURIZMINING BARQARORLIGINI OSHIRISH VA XIZMATLAR SOHASIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida ziyorat turizmi sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar turlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari, sohadagi islohotlarning samaradorligi va turizm infratuzilmasini takomillashtirish usullari tahlil qilingan. Innovatsion yondashuvlar va raqamli xizmatlarni joriy etish orqali ziyoratchilarga qulayliklar yaratish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, Yangi O'zbekiston, strategik rivojlanish, xizmatlar turi, infratuzilma, innovatsiya, marketing.

Kirish. Ziyorat turizmi diniy, ma'naviy hamda madaniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan maskanlarga safar qilishni o'z ichiga oladi va jahon turizm industriyasining eng barqaror yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Yangi O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalish nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil, balki milliy merosni xalqaro miqyosda targ'ib etishning samarali vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalar bilan bog'liq muqaddas qadamjolar hamda Islom sivilizatsiyasi markazi kabi obyektlar orqali ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Shu bilan birga, mazkur sohada xizmat ko'rsatish sifati va infratuzilmaning zamonaviy talablarga mosligi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar ziyorat maskanlarini oddiy tashrif obyektlaridan yuqori darajadagi servisga ega zamonaviy turistik markazlarga aylantirishga yo'naltirilgan. Xususan, “Ziyorat turizmini rivojlantirish strategiyasi” doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlar xizmatlar sifatini yangi bosqichga ko'tarishni maqsad qilgan.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.